

JANUBIY O'ZBEKISTON HUDUDIDA ILK TAFAKKUR KURTAQLARI

Shodmonov Anvar,

Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya: XX asr texnika asri. Bir qarashdan hozirgi insonlar ilk va qadimda o'tgan insonlardan yaratuvchiligi nuqtaiy nazardan juda-juda ustundek tuyuladi. Lekin, tariximizning asta - sekinlik bilan ijobiy tomonga o'sishi natijasida ota- bobolarimiz yaratgan madaniyatlarning mazmun mohiyati hozirgidan kam emasligini ko'rishimiz mumkin. Inson ongi va tafakkurining rivojlanishi ortidan yangi - yangi tamaddunlarga vujudga keldi.

Kalit so'zlar: Paleolit davri, ashell va muste davrlari, tafakkur, ong, Fergantrop-neandertal, olov izlari, ko'mir qoldiqlari, g'orlarda istiqomat.

Аннотация: XX век – век технологий. На первый взгляд кажется, что современные люди по своему творческому потенциалу значительно превосходят людей ранних и древних времен. Однако в результате постепенного развития нашей истории в положительном направлении мы видим, что есть культур, созданных нашими предками, не меньшая, чем сейчас. Вслед за развитием человеческого сознания и мышления возникли новые цивилизации.

Ключевые слова: палеолит, периоды Ашелла и Мустье, мышление, сознание, ферганторы-неандертальцы, следы огня, остатки угля, обитание в пещерах.

Abstract: XX century is the age of technology. At first glance, it seems that the people of today are very superior in terms of their creativity to the people of the early and ancient times. However, as a result of the gradual growth of our history in a positive direction, we can see that the essence of the cultures created by our ancestors is no less than it is now. Following the development of human consciousness and thinking, new civilizations emerged.

Key words: Paleolithic period, Ashell and Muste periods, thinking, consciousness, Ferganthropus-Neanderthal, traces of fire, remains of coal, dwelling in caves.

O'tmish tarixi juda qadim zamonlarga

borib taqaladigan Ibtidoiy to'da davrida mulkchilikning hech bir shakli bo'lmagan. Odamzod o'zining ibtidoiy holatidan tom ma'nodagi odam holatiga o'tish, fikrlovchi odam bo'lib shakllanish jarayonini boshdan kechirgan. Hali jamoa bo'lib yashash ko'nikmalari shakllanmagan edi[1.B;19]. O'rta Osiyo singari janubiy O'zbekistonning ham vatanimiz tarixida o'zgacha o'rni bor. Shubhasiz, ana shu yurtlardan biri Surxondaryo viloyatidir. Ushbu voha O'zbekistonning janubida joylashgan qadimda insoniyat sivilizatsiyasi mavjud bo'gan viloyatdir.

Surxondaryo viloyati nomi vohadan oqib o'tuvchi „Surxon“ (fors-tojik: „qizil“) daryosi nomidan kelib chiqqan. O'z ichiga Janubidan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimoliy, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g'arbdan Turkmaniston, shimoli-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Uning paleolit davrida iqlim sharoyiti hozirgidan ancha farq qilgan. Yozda havo iliq va quruq, qishda esa sovuq bo'lgan. Ilk paleolitning oxirlarida iqlim soviy boshlaydi. Bu esa hayvonot va o'simlik dunyosiga ta'sir qiladi. Qattiq sovuq o'sha davr odamlarini sovuqdan himoya qiluvchi atrofi yopiq joylarni izlab topishga undaydi va tog'larni, tog' to'sib turadigan soylarni va shunga o'xshash joylarni makon tutadilar.

Janubiy O'zbekiston tosh davrini ilmiy o'rganish ishlari 1938-yilda o'rta paleolit davriga oid mashhur Teshiktosh g'orining ochilishi bilan boshlangan. Eng qadimgi tosh asri olduvay, qadimgi ashell, hamda muste davrlariga bo'linadi. Uning eng quyi sanasi 3,5-3 mln, yuqorisi esa, 100-35 ming yilga kelib taqaladi[2. B:18]. Shunga o'xshash boshqa adabiyotlarda paleolitda uch bosqichga ajratiladi: quyi (miloddan avvalgi 3 million - 200 ming yillar), o'rta (200-40 yillar) ming yilliklar) va yuqori (miloddan avvalgi 40-15/10 ming yilliklar)[3. B:54].

R.Z.Ibragimovning fikricha paleolit davrining ilk bosqichlariga oid moddiy topilmalar Sharqiy Afrika hududlarida tarqalgan makonlarda o'z aksini topgan bo'lib, Olduvay

makoni nomi bilan dastlabki bosqichi sifatida fanga kiritilgan. Qadimgi tosh asrining keyingi bosqichlari ashell, o'rta paleolit (muste), so'nggi paleolit davrlaridan iborat[4. B:7]:

Ilgari ilk paleolit davri shell, ashell davrlariga bo'lingan edi. Lekin keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar natijasida, uni olduvay va ashel davrlariga bo'lish muvofiq deb topildi. Chunki ilgarilari olduvay davri yodgorliklari kam bo'lib, uni davr tariqasida ajratish imkoni bo'lmagan. Shell va ashel qo'l cho'qmorlaridagi vazn jihatidan farqini e'tiborga olib, ularni davr sifatida ajratishgan. Keyingi yillarda olduvay davri mehnat qurollarining ko'plab topilishi, uning davr sifatida ajratib ko'rsatishga imkon tug'dirdi. Shell va ashel davrlari esa, bir davr qilib - ashell davri deb belgilandi[5. B:17-18].

Albatta yaqin yillarga qadar ilk paleolit davri jahon arxeologiyasida 3 mln yillikdan to - 100 ming yilliklarga deb belgilangan. O'zbekistonda, ilgari, ilk paleolit davri mil.avv. 1 mln yillikdan 100 ming yillikkacha davom etgan deb hisoblanilgan. Keyingi davrlarda arxeologiyada sohasidagi yutuqlar davrlashtirishning yangi metodi asosida uning bundan 2 mln yillikdan 200 ming yillikkacha davom etganligi aniqlandi.

O'zbekistonda paleolit davri yodgorliklari haqida gapirganda, albatta, eng qadimdan inson izlari mavjud bo'lgan hududlar sirasiga kiradi. Bu davrda odamzodning Fergantrop-Neandertal ajdodlari yashgan davr hisoblanadi[6. B:76]. Bunda Selung'ur g'ori, Ko'lbuloq, So'x ochiq tipdagi manzilgohlar, Toshsoy va Qizilolma yodgorliklari nafaqat O'rta Osiyoda balki, butun dunyo arxeologiyasida muhim manzilgohlar hisoblanadi. Janubiy O'zbekiston hududlarida ilk paleolit davriga oid manzilgohlarning o'rganilishi hali oxiriga yetgani yo'q.

O'rta paleolit davriga kelib odamining fizik tipi o'zgarib Arxantropalar o'rnini Paleantropalar (neandertallar) egallaydi. O'zbekistonning janubidagi qadimgi odamlarning dastlabki manzilgohlari turli yovvoyi hayvonlar va yovvoyi o'simliklar bilan qoplangan tog' o'rmonlarida, Boysun tog'laridan oqib tushuvchi daryo etaklarining bo'ylarida paydo bo'ldi. O'rta paleolit davriga oid dastlabki yodgorlik Teshiktosh g'or makonidan topilgan. Bu makon Surxondaryo

viloyatining Boysun tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridagi darasida joylashgan. G'or shimoli-sharqqa qaragan bo'lib, kengligi old qismida 20 metr, chuqurligi 21 metr va balandligi 9 metrdir. Eng muhim jihatlardan biri Teshiktosh materiallari o'rta paleolit davridan so'ngi paleolit davriga evolutsiyon-tafakkur asosida o'tishni kuzatish mumkin[7. B:38]

Boysundagi yana bir g'or-makonlardan biri Amir Temur g'oridir. U Teshiktosh g'oridan uzoq bo'lmagan yerda joylashgan. 1939 - yilda A.P.Okladnikov qazishma ishlari olib borgan. Bu yerda uchta madaniy qatlam bo'lib, yuqoridagi ikkitasi yangi tosh davriga oid. Eng quyi uchinchi qatlam o'rta paleolit davriga oiddir. Amir Temur manzilgohidan topilgan mehnat qurollari ham odamlarning ovchilik hamda termachilik asosida kun kechirishganidan guvohlik beradi.

G'orning chuqurligi 1 m gacha yetadigan uchinchi qatlamdan kam sonli tosh buyumlar yig'ib olingan. Ular orasida prizmasimon nukleus va yirik qirg'ich mavjud. Ushbu qatlamdan archaga taalluqli ko'mir qoldiqlari topilgan.

O'rta paleolitga oid deb topilgan Boysuntog'dagi yana bir yodgorlik Kattaqo'rg'on bo'lib, u Teshiktoshning qarama-qarshisida, Machaydaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bu yerdagi dastlabki qazishmalar 1930-yillarda G.V.Parfyonov tomonidan amalga oshirilgan. Arxeologik qazishmadan olingan materiallar bilan tanishib chiqqan A.P.Okladnikov ularni Teshiktosh materiallariga o'xshash, deb topgan (*yodgorlik materiallari bilan tanishib chiqqan V.A.Ranov esa qarama-qarshi fikrga keladi. U ushbu tosh ayvonda o'rta paleolitga oid qatlamlar yo'q, deb hisoblaydi*). Keyingi davrda arxeologlar Surxondaryo vodiysining turli joylaridan, xususan, To'palang daryosi bo'ylaridan o'rta paleolit davri kishilarining mehnat qurollarini topganlar.

2002-2003 - yillarda O'zbekistonda tosh davrini o'rganish bo'yicha xalqaro O'zbek-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi Boysuntog'da ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada, bu yerdan o'rta paleolit davriga oid Amir-Temur 1 hamda o'rta va so'nggi paleolit davriga mansub Teshik-Tosh 2 g'or makonlari ochib

o'rgandilar[8.B:17].

Teshiktosh 2 g'orining eni 15 m, bo'yi esa janubdan sharqqa qarab 61,6 m.ga cho'zilgan harsang ayvondir. Qazish ishlari jarayonida g'ordan 28 ta tosh buyum yig'ib olingan. Xomashyo sifatida bu yerda yashagan odamlar mahalliy ohaktoshlardan, ya'ni, ular orasidan ko'proq kremniylashganlarini tanlab olib foydalanganlar. Bu xomashyoning sifati juda past va ularda ichki yoriqlar, bo'shliqlar hamda turli qo'shimchalar ko'p uchraydi. Qazishmaning turli xil chuqurliklaridagi ayrim, alohida topilmalar g'orni ibtidoiy odamlar tomonidan bir necha bor o'zlashtirilganligini va biroq, bu o'zlashtirishlar qisqa muddatli, epizodik yoki mavsumiy bo'lganligini ko'rsatadi. Mumkinki, ushbu g'or Teshiktosh ovchilarining Hisor tizmalaridan Machaydaryoga o'tadigan tranzit yo'ldagi to'xtash joyi vazifasini o'tagan.

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Ko'hitang tog'i hududida paleolit davriga oid yodgorlik aniqladi. Arxeologik dala tadqiqotlari 2021-yil 25-noyabrdan 5-dekabrgacha Milliy arxeologiya markazi xodimlari tomonidan professor Rustam

Sulaymonov boshchiligidagi olib borildi.

Ko'hitang tog'ining ichki qismida tor daralar mavjud bo'lib, ularda geologik jarayonlar natijasida ko'plab g'or va ungurlar shakllangan. Ularning biridan qadimgi davrda ibtidoiy odam ajdodlari mavsumiy boshpana sifatida foydalangan. Dastlabki kuzatuvlar natijasida yodgorlik yer sathidan ko'plab tosh o'zaklar, ularning parchalari, uchrindi va plastinalar, hamda, qurollar yig'ib olindi. Qazuv ishlari natijasida yodgorlik bitta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlandi.

Qayd etilishicha, ushbu yodgorlik hududda ilgari topib o'rganilgan Teshiktosh yodgorligiga xronologik va madaniy jihatdan o'xshash.

Ushbu yodgorlikning paleolit davriga oid yodgorligining madaniy qatlami kul va kuyindi qoldiqlari bilan qoplangan qoramtir, mayda tarqoq tuproqdan tarkib topgan bo'lib, unda ham ko'plab tosh buyumlar va yovvoyi hayvon suyak qoldiqlari topildi. Demak nafaqat Boysun hududlarida balki viloyatning Sherobod tumani hududlarida ham o'rta paleolit davri odamlari, Neandertallarning izlari borligi voha tarixini chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Janubiy O'zbekiston xududida O'rta paleolit davri yodgorliklari¹

1-jadval

	Yodgorliklar nomi	Davri	Topilgan topilmalar	Hududi
	Teshiktosh g'ori	O'rta paleolit	Teshiktosh g'orining madaniy qatlamlaridan 2228 ta tosh buyumlar topib o'rganilgan. Ular tarkibida asosan kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan bo'lib, tarkibida nukleuslar, qirg'ichlar, paykonlar, kesgichlar, retushlangan uchirindilar va plastinalar mavjud.	Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida
	Amir Temur g'ori	o'rta paleolit	Qo'pol ishlangan yirik qirg'ichlar, plastinalar, lapkasimon nukleuslar va ulardan uchirib olingan tosh bo'lakalar topilgan.	Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida
	Kattaqo'rg'on yodgorligi	O'rta paleolit (taxmin)		Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida
	Teshiktosh 2 g'or makoni.	o'rta paleolit	Qazish ishlari jarayonida g'ordan 28 ta tosh buyum yig'ib olingan. Xom-ashyo sifatida bu	Surxondaryo viloyatining

¹ Ushbu jadvalda hali Janubiy O'zbekiston xududida o'rganilmagan va endi o'rganilayotgan yodgorliklar ro'yxati kiritilmagan va mukammallikdan yiroqdir. Zero bu hudud ilk ibtidoiy sivilizatsiya beshiklaridan biridir.

			yerda yashagan odamlar mahalliy ohaktoshlardan, ya'ni ular orasidan ko'proq kremniylashganlarini tanlab olib foydalanganlar.	Boysun tumanidagi
	To'palang daryosi bo'ylari ochiq tipdagi manzilgoh.	O'rta paleolit	Ko'plab tosh buyumlar	Surxondaryo viloyatining Denov-Saraosiyo tumanlarida
	Ko'hitang tog'idagi yangi topilgan yodgorlik.	O'rta paleolit	Ko'plab tosh buyumlar. (Qazish ishlari yakunlanmagan)	Sherobod tumani Xatak qishlog'i

Inson tafakkurining rivojlanishishi ortidan yuqori paleolitda yangi inson tipining vujudga kelishishiga olib keladi. Aynan o'rta paleolit davri odamlari aqilli odam turini rivojlanishiga turtki bo'lgan.

A.P. Okladnikovning ta'kidlashicha, olov Teshiktoshda uzoq vaqt davomida yonmagan. Chunki, gulxan osti tuproqlari unchalik kuymagan.

Go'shtni tanlashda hayvonning yoshi muhim rol o'ynaydi. Asosan yosh hayvonlarning go'shti uchun harakat qilingan². Teshiktosh go'ridan topilgan hayvonlarining 667 ta suyagidan 649 tasi kiyik suyagidir. Bizga ma'lumki kiyik go'shti o'zining xossalari bilan noyobdir: bug'u moxi bilan oziqlanadi³. Bu esa inson uchun koni foydadir. Pishirib yeyilgan ovqatlar insonning biologik, fizologik hamda tafakkur nuqtayi nazardan rivojlanishiga olib keldi.

Neandertal bolaning qabri ham aftidan, birinchi madaniy qatlam bilan bog'liqdir. Odam tanasining bosh qismi - g'or ichiga, oyog'i esa tashqariga qaratib qo'yilgan. Suyaklarning madaniy qatlamlar ostida ekanligini inobatga olinsa mayit maxsus kovlangan, uncha chuqur bo'lmagan o'raga dafn etilgan.

Ikkinchi madaniy qatlamdan va uncha katta bo'lmagan gulxan izlari, uchinchi madaniy

qatlamdan uchta o'choq va to'rtinchi madaniy qatlamning katta qismi ko'mir bo'laklari bilan quyuq qoplangan bo'lib, 3x3 m dan iborat yumaloq maydonchaga ega. Bu maydonchani markazida katta o'choq (2x1,3m) joylashgan. Quyi beshinchi madaniy qatlamdan (maydoni 15m) ikkita o'choq izlari aniqlangan.

Ilk paleolit davrida tabiiy olov izlari mavjud bo'lgan bo'lsa, o'rta paleolit davrida ko'mir qoldiqlarining topilishi va shunga o'xshash ataylab olovning yoqilish izlari olovni suniylashtirish ehtiyojini vujudga keltirgan. Olov tosh davrining boshlarida kamida to'rtta vazifani bajaradi: **himoya, isinish, yorug'lik, va pishirish**. Ximoya - odamlarni yirik hayvonlarga yem bo'lishidan asradi va tabiatda yetakchilik ro'lini qo'lga kiritdi. Isinish - yer tarixidagi eng uzoq muzlash bilan bog'liq bo'lgan keskin sovish sharoitida omon qolish imkonini berdi. Yorug'lik - kunning uzunligini uzaytirdi va tunga ta'sir qildi, kechasi sun'iy yoritish sirkadiyalik ritmlarni⁴ o'zgartirib, hushyorlikni uzaytirdi. Pishirish -bu insonning ovqatlanishini yaxshiladi va diversifikatsiya qildi, uning mavjudligi uchun yanada qulay sharoitlarni ta'minladi va taffakkurini rivojlanishiga zamin yaratdi.

Yana bir narsaga alohida to'xtalish kerakki, muste davrining ko'pgina makonlari ov

² Hayvon go'shti qanchalik katta bo'lsa va tarkibida zararli yog'lar ko'p bo'ladi.

³ Moxi o'simligi kiyiklarning go'shtini chinakam dorivor qiladi. Ushbu mahsulotdagi yog' miqdori kam. U yaxshi so'riladi, shuningdek inson tanasida ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uni davolaydi: yurak faoliyatini normallantiradi, qonda yuqori xolesterin xavfini kamaytiradi. Qon, va diabetes mellitus paydo bo'lishining oldini oladi.

⁴ Sirkadiyalik ritmlar - kecha va kunduzning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil biologik jarayonlar intensivligidagi siklik tebranishlar. Sirkadiyalik ritmlarning davri odatda 24 soatga yaqin. Sirkadiyalik ritmlar tashqi stimullar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, kelib chiqishi endogen bo'lib, tananing biologik soatini ifodalaydi

natijasida o'ldirilgan hayvon suyaklarini yoqib yuborgan bo'lsa, Teshiktosh aholisi suyaklardan foydalangan[9.B:150]. Teshiktoshdan suyakdan yasalgan mehnat qurollari ham topilgan.

Teshiktosh g'orining madaniy qatlamlaridan 2228 (3 mingdan ortiq, *O'zbekiston tarixi xrestomatiya 1 jild. Fan nashriyoti Toshkent 2014 y. 25 bet*) ta tosh buyumlar topib o'rganilgan. Teshiktoshda yirik uchli nayzasimon ish qurollar mavjud emas. P.P.Yefimenko muste davriga oid ikkita eng mashxur qurol- nayza va qirg'ichni taqqoslab quyidagi fikrga kelgan: uchli nayza ko'proq "erkaklar pichog'i" qirg'ich esa ko'proq "ayollar pichog'i"ga yaqin bo'lgan. Nayza bilan erkaklar bemaol hayvonlarni ovlagan bo'lsa, qirg'ich bilan esa ayollar uy xo'jaligida foydalangan[10. B:3-5].

Xulosa o'rnida shu narsani alohida takidlash lozimki, ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo'lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to'plaganlar. Dastlab ibtidoiy

odamlar ehtiyojini qondirish maqsadida oziq-ovqat qidirib o'zi yashayotgan atrof muhitni yahshiroq o'rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabitdagi mavjud bo'lgan istemolga yaroqli o'simlik va mevalarni qidirib topishi, kuzatishi natijasida botanik bilimlarini to'plagan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologik bilimi shakllana boshladi. Sovuq iqlimning vujudga kelishi natijasida fizik - astronomik bilimlar shakllana borgan. Qorong'ulikning mavjud bo'lishi oqibatida qo'rquv hissining yanada oshib borishi natijasida diniy qarashlarning vujudga kelishi sodir bo'ldi. Ovchilik mahsulotlari va termachilikdagi mahsulotlarning taqsimlanishi natijasida matematik bilimlarning oshib borishi va bu jarayonlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Albatta inson tafakkuri cheklanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. Москва, 1980. -С. 19-173
2. Annayev J.T. Jahon arxeologiyasi (o'quv qo'llanma) Toshkent.: "Innovatsiyon-Ziyo". 2020. 18 bet.
3. Молева Н.В. Каменный век в археологии (Учебно-методическое пособие). Нижний Новгород. 2009. ст №17.
4. Ibragimov R.Z. Markaziy Osiyo arxeologiyasi. Toshkent 2013. 7-bet
5. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya (o'quv qo'llanma). Toshkent.: 2011. 17-18 bet.
6. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Monografiya. Toshkent.: 2019. 76,1-bet
7. Jo'raqulov M.J O'rta Osiyo arxeologiyasi Toshkent.: 1997. 38-bet
8. Ражабов А.Ю, Махкамова Н.А. Жанубий Ўзбекистоннинг қадимги тош даври археология ёдгорликлари ўрганилиш тарихи // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида ЎЗР ФА Археология институтида 2013-йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари 17-бет.
9. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. Ленинград.: 1979. -С. 150.
10. Omonov V.Teshiktosh odami. // Fan va turmush 2008. 3,4,5,50-bet.

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHDA MAHALLA TIZIMINING O'RNI

Sanginova Iroda Nematullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti.

i.sanginova@dtpi.uz

Anotatsiya: Bizga ma'lumki yosh avlod boshlang'ich tarbiyani oilada, mahallada oladi.

Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va